

2. Kun Xiang. *The connotation, structure and development path of digital silk road construction from the perspective of digital economy* [J]. – *Western Forum*, 2017 (6): 11-16.
3. G20 leaders. *G20 Digital Economy Development and Cooperation Initiative* [R]. – Hangzhou: G20 2016: 1-3.
4. Mahmud S.A. *5G Wireless Technologies-Future Generation Communication Technologies* [J]. // *International Journal of Computing and Digital Systems*, 2017, 6(3): 139-147.
5. Lauscher A. *Life 3.0: being human in the age of artificial intelligence* [J]. 2019.
6. Bukht R. & Heeks R. (2017). *Defining, Conceptualising and Measuring the Digital Economy*. *Development Informatics Working Paper*, (68).
7. Williams L.D. (2021). *Concepts of Digital Economy and Industry 4.0 in Intelligent and Information Systems*. // *International Journal of Intelligent Networks*, 2, 122-129.
8. Mukhtorovna N.D. (2021). *Importance of Foreign Investments in the Development of the Digital Economy*. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 219-224.
9. Sarjana S., Najib M.A.A. & Khayati N. (2021). *Bibliometric Analysis to Encourage the Development of Digital Economy Scientific Studies*. *Conference Towards ASEAN Chairmanship 2023*, pp. 14-21. Atlantis Press.
10. Krasota T., Bazhenov R., Abdylidaeva U., Bedrina S. & Mironova I. (2020). *Development of the Digital Economy in the Context of Sustainable Competitive Advantage*. *E3S Web of Conferences*, Vol. 208, p. 03042. EDP Sciences.
11. Jiao S. & Sun Q. (2021). *Digital Economic Development and Its Impact on Economic Growth in China: Research-Based on the Perspective of Sustainability*. *Sustainability*, 13(18), 10245.
12. Oshisami K. (1992) *Government Accounting and Financial Control*. Spectrum Books Ltd., Ibadan.
13. Mnich E.V., Bardash S.V., Nykonovych M.O., Barabash N.S., Nazarova K.A. *O T 2009 State financial audit: Methodology and organization* National University of Trade and Economics Kyiv.
14. Glushchenko V.V., Khmel'kov A.V. (2016) *Financial control in Russia: vectors of development (Finance)* 6 97-103.
15. Bystryakov A.Y. (2017) *Ways to improve the state financial control in the Russian Federation: definition and justification (Publishing House)* 59-60.
16. Белобжецкий И.А. *Финансово-хозяйственный контроль в управлении экономикой*. – М.: Финансы и статистика, 2011 г. – 302 стр.
17. Бровкина Н.Д. *Основы финансового контроля. Учебное пособие*. / Под ред. М.В.Мельник. – М.: Магистр, 2010 г. – 286 стр.
18. Vahobov A.V., Malikov T.S. *Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma*. – T.: Iqtisod-moliya, 2008-y. – 316 b.
19. Sholdarov D.A., Navruzova G.O. *Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati va davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish*. // *Journal of Economy, Tourism and Service* Vol. 2, No. 4, 2023. P. 1-4.

TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA YONG'OQ YETISHTIRISH VA SOTISH QIYMAT ZANJIRIDA YAKUNIY NARX SHAKLLANISHI BO'YICHA XARAJATLAR ULUSHI TAHLILI



 https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a29

Axrorov Farhod Baxriddinovich

i.f.n., dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasida dotsenti.

Avezov Humoyun Ilxomovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tayanch doktorant.

Sangirova Umida Ravshanovna

i.f.n., dotsent. "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada tog' va tog'oldi hududlarida yong'oq yetishtirish va sotish qiymat zanjirida yakuniy narx shakllanishi bo'yicha xarajatlar ulushi tahlili natijalari keltirilgan. Izlanish natijalariga ko'ra, dehqonlar tomonidan olingan sof qiymat, yong'oq mag'izlarini an'anaviy vositachilardan farqli o'laroq, takomillashgan kanal ichidagi qayta ishlovchilar orqali sotilganida sezilarli o'sishni ko'rsatishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yong'oq, qiymat zanjiri, sotuv samaradorligi, qayta ishlash.

АНАЛИЗ ДОЛИ ЗАТРАТ В ФОРМИРОВАНИИ КОНЕЧНОЙ ЦЕНЫ В ЦЕПОЧКЕ СОЗДАНИЯ СТОИМОСТИ ВЫРАЩИВАНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ ГРЕЦКОГО ОРЕХА В ГОРНЫХ И ПРЕДГОРНЫХ РЕГИОНАХ

Ахроров Фарход Бахриддинович

к.э.н., доцент, Самаркандский филиал Ташкентского государственного экономического университета.
Доцент кафедры «Зеленая экономика и устойчивый бизнес».

Авезов Хумаюн Илхомович

Самаркандский филиал Ташкентского государственного экономического университета, PhD студент

Сангирова Умида Равшановна к.э.н., доцент.

Доцент кафедры экономики Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Аннотация. В статье представлены результаты анализа доли затрат на формирование конечной цены в цепочке создания стоимости производства и реализации грецкого ореха в горных и предгорных регионах. Согласно результатам исследования, чистая стоимость, заработанная фермерами, значительно увеличивается, когда ядра орехов продаются через улучшенные внутриканальные переработчики, а не через традиционных посредников.

Ключевые слова: грецкий орех, цепочка создания стоимости, эффективность маркетинга, переработка.

ANALYSIS OF THE SHARE OF COSTS IN THE FORMATION OF THE FINAL PRICE IN THE VALUE CHAIN OF GROWING AND SELLING WALNUTS IN MOUNTAIN AND SUB-MOUNTAIN REGIONS

Axrorov Farhod Bakhriddinovich

Candidate of economics, associate professor,
Samarkand branch of Tashkent State University of Economics Associate
Professor of the "Green Economy and Sustainable Business" Department.

Avezov Humoyun Ilkhomovich

Tashkent State University of Economics, Samarkand Branch, PhD student

Sangirova Umida Ravshanovna.

Candidate of economics, associate professor, Assistant Professor of
Economics Department, National Research University "Tashkent Institute
of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers".

Abstract. The article presents the results of the cost share analysis of the final price formation in the value chain of walnut production and sale in mountain and sub-mountain regions. According to the research results, the net value received by the farmers shows a significant increase when the nut kernels are sold through improved in-channel processors as opposed to traditional intermediaries.

Key words: walut, value chain, marketing efficiency, processing.

Kirish. Yong'och hosili yig'im-terimidan keyingi yo'qotishlar miqdori natijaviy iqtisodiy qiymati jihatidan katta ahamiyatga ega. Mahsulot qayta ishlashdan o'tib, eksport bozoriga chiqish jarayonini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Yo'qotishlarni kamaytirish uchun ishlab chiqarish bilan hosildan keyingi boshqaruvni integratsiyalash kerak.

Yong'och mahsulotlariga milliy va xalqaro bozorda yuqori talab mavjud. Shu bilan birga, yaxshi rivojlanmagan marketing tizimi dehqonlarni ular olishi mumkin bo'lgan potensial daromadlardan mahrum qilmoqda. Yong'oqni xo'jalik

darajasida qayta ishlash bunday muammolar yechimi uchun imkoniyat bo'lishi mumkin, ammo noto'g'ri va ilmiy asoslanmagan qayta ishlash sifat yo'qotilishiga olib keladi, bu esa yanada jiddiroq muammo bo'lib, inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lishiga olib keladigan kasallik va zarukandalar yuqtirishi mumkin [1, 2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston sharoitida yong'och yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari esa nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, mevachilik sohasidagi bir qancha tadqiqotlar tarkibida qisman o'rganilgan, xolos. Shuningdek, qishloq xo'jaligini barqaror ri-

vojlantirish sharoitida yangicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tatbiq etilayotgan intensiv rivojlanish davrida yong' oq va yong' oq mahsulotlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Grek yong' og' i ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulotning bozorgirlik xususiyatlarini yaxshilash, yong' oq ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalar jalb etish, dunyoda grek yong' og' i yetishtirish xususiyatlari va ulardan foydalanish masalalari bir qator xorijlik olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jumladan, bir qator rossiyalik iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, yong' oq bog' larining past hosildorligi, asosan, navdan tashqari tarkib, yetarlicha changlanmasligi, mevalarning tushib ketishi, kasalliklar va shu kabilar bilan izohlanadi [3].

A.F.Zarubin va F.S.Barishmanning so'zlariga ko'ra, "yong' oqning hosildorligi past bo'lishining asosiy sabablaridan biri yong' oq plantatsiyalarining zichligidir" [4]. Bundan tashqari A.F.Zarubin "yong' oqni yuqalashdan oldin va undan keyin maydon birligidan olinadigan hosil bir xil bo'lib qoladi" degan xulosaga keldi [5].

V.A.Olisayev so'zlariga ko'ra, "yong' oq plantatsiyalarining zichligi sabab yorug'lik yetishmasligi va hosilning keskin pasayishi sodir bo'ladi, shuning uchun ishlab chiqarishda plantatsiyalarni ilmiy asoslangan ekish sxemasi bo'yicha tashkil etish tavsiya qilingan" [6].

Yong' oq yetishtirish va uning hajmini oshirish, yong' oq ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari, sohani rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar shug'ullangan. Eronlik tadqiqotchi Baxshinajadning "Сравнительные преимущества культур семейства ореховых в Иране" nomzodlik dissertatsiyasida [7] Eron yong' oq ishlab chiqarish va eksport qilishda mavjud nisbiy ustunlikni oshirib borish uchun yuqori salohiyatga ega ekanligi keltiriladi. Uning fikricha, sohada moddiy-texnik bazani shakllantirish, kadrlar tayyorlash, infrazo'ldan rivojlantirish kabilarni o'z ichiga olgan samarali ishlab chiqarish uchun mos sharoitlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqish va joriy qilish maqsadga muvofiq. Avstriyalik H.Adem va Peter Jerie muallifligidagi "Walnut Industry. Research & Best Practice Implementation" hisobotida yong' oq yetishtiruvchilar shaklida ishlab chiqarishni tashkil etish orqali sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish istiqbollari ko'rib chiqilgan [8].

Mamlakatimizda yong' oq ishlab chiqarish va uni qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, mevachilik sohasida bir qancha tadqiqotlar tarki-

bida o'rganilgan. Hozirgi kunda yong' oq ishlab chiqarish va sotish samaradorligi bo'yicha yurtimizda bir qator olimlar ilmiy izlanish olib bormoqda. F.Axrorov, U.Sangirova so'zlariga ko'ra, "Qo'shilgan qiymat hisobiga yong' oq yetishtirishning eksport marketing bilan integratsiyalashuvi ushbu ekinning ichki va tashqi savdosida salohiyatidan foydalanishga yordam beradi hamda ushbu sohalaridagi ilmiy tadqiqotlar sifatini yaxshilashda samara beradi" [9]. Bundan tashqari "Fermer xo'jaligi va hududlar darajasida kichik yong' oqni qayta ishlash bo'linmalarini tashkil etish aholi daromadini oshirishda xizmat qiladi" deb ko'rsatiladi [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Shu kunga qadar mahsulot qiymat shakllanishi, shuningdek, yong' oqning qiymat zanjirini iqtisodiy jihatdan o'rganish bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarni tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi. Ushbu tadqiqot Samarqand viloyatining beshta tumani – Urgut, Ishtixon, Oqdaryo, Qushrabot, Payariq va Jizzax viloyatining Forish tumanidagi yong' oq yetishtiruvchi fermerlardan 2023-yilda o'tkazilgan so'rovnomalar asosida to'plangan ma'lumotlarga asoslandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'zbekistonning tog'li va tog'oldi hududlarida yong' oqning qiymat zanjiri quyidagi bo'g'inlardan tashkil topgan:

1. Yetishtirish.
2. Hosil yig'im-terimi.
3. Yig'im-terimdan keyingi ishlov berish.
4. Tayyorlash .
5. Qayta ishlash.
6. Qadoqlash.
7. Chakana savdo.
8. Eksport.

O'zbekistonda yong' oq eksport qilishda, odatda, bir nechta umumiy talablar qo'llaniladi:

- sifat standartlari. Eksport uchun mo'ljallangan mahsulotlar xalqaro savdo qoidalari va import qiluvchi mamlakat tomonidan belgilangan sifat standartlariga javob berishi kerak;

- qadoqlash va yorliqlash. Eksport qilinadigan yong' oqlar xalqaro standartlar va belgilangan davlat talablariga muvofiq to'g'ri qadoqlanishi va etiketlanishi kerak;

- fitosanitariya sertifikatini. Ko'pgina mamlakatlar eksport qilinadigan yong' oqning zararli zararkunandalar va kasalliklardan xoli bo'lishini ta'minlash uchun fitosanitariya sertifikatini talab qiladi;

• eksport litsenziyasi va hujjatlari. Eksportyorlar zarur eksport litsenziyasini olishlari va mamlakat eksport qoidalariga muvofiq barcha hujjatlar talablarini bajarishlari kerak. Bunga hisob-fakturalar, bojxona deklaratsiyasi, kelib chiqish sertifikatlari va import qiladigan davlat tomonidan so'ralgan qo'shimcha hujjatlar kiradi;

• savdo kelishuvlari va tariflari. O'zbekiston va import qiladigan davlat o'rtasida biron-bir savdo kelishuvi mavjud bo'lsa, eksport jarayoniga ta'sir qiluvchi maxsus tarif stavkalari yoki imtiyozli savdo shartlari qo'llanilishi mumkin.

Ayni paytda jahon bozorida yong'oq tovarlilik xususiyatlari (iste'mol qiymati) quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- yong'oq mag'izining ta'm sifati;
- yong'oq mag'izining rangi;
- chaqilgan yong'oq mag'izining (yadrosi) yirikligi ko'rsatkichi;
- yong'oq po'chog'i qalinligi;
- yong'oq mag'izining (yadrosi) yong'oqning ichki bo'shlig'ini to'ldirib turishi;
- yong'oq mag'izini (yadrosi) yong'oqning po'chog'idan ajratish osonligi.

Inobatov fikriga ko'ra [11], grek yong'og'i mag'izining o'lchamlariga bog'liq holda Rossiya bozoriga quyidagi toifalarda taklif qilinadi:

1. **Kapalak** (бабочка). Yong'oq mag'izi ikkita teng bo'laklarga bo'lingan va ko'rinishi kapalak nusxa. Bevosita tayyor oziq-ovqat mahsuloti sifatida iste'mol qilinadi.

2. **Choraklik** (четвертушка). Yong'oq mag'izi teng to'rtta bo'laklarga bo'lingan. Bevosita iste'mol qilinadi va turli taomlarga va salatlariga qo'shiladi.

3. **Yarim choraklik** (восьмушка). Odatda, yong'oq mag'izi sakkizga bo'lingan bo'laklardan iborat. Tortlar, kulchalar va boshqa shu kabi mahsulotlar tayyorlashda foydalaniladi.

4. **Mayda bo'lakcha** (мелкие кусочки). Bu yong'oq Mag'izining kichik bo'laklari, odatda, 4-6 mm o'lchamda. Konditer mahsulotlari va qayta ishlab, yong'oq moyi tayyorlashda foydalaniladi.

5. **Yong'oq uni** (ореховая мука). Yong'oq mag'izining elakdan o'tgan eng mayda qismi. Xamirga qo'shib, tort, turli pishiriqlar va yong'oq kremi tayyorlashda foydalaniladi.

Har bir toifaga kirgan mahsulotlar, asosan, bozor talabi asosida aniq maqsad uchun savdoga chiqadi va mos ravishda mahsulot bahosi shakllanadi. Toifalar o'rtasida baholarda sezilarli farq kuzatiladi. Shuningdek, birinchi va ikkinchi (asosan, birinchi) toifaga kirgan mahsulotlar yong'oq mag'izining rangiga qarab yana turlicha bahoda sotiladi.

1-jadval

O'zbekistonda mahalliy bozorda yong'oq mag'izining rangi va shakliga qarab toifalarga ajratilishi¹

Mag'iz toifasi	Tavsifi	Rangi	O'rtacha xarid bahosi (2022-yil, ming so'm)*
G'ilak	Asosan, ichki iste'molga qaratilgan	Oq	65
		Bug'doyrang	58
		Qizil	43
Kapalak	Eksportga va qisman ichki iste'molga mo'ljallangan	Oq	55
		Bug'doyrang	51
		Aralsh	46
Sechka	Konditer mahsulotlari uchun xomashyo sifatida ishlatiladi	Qizil	45
		Bug'doyrang	26
		Aralsh	26
		Qizil	26
Puchak	Konditer mahsulotlari uchun xomashyo sifatida ishlatiladi	Qora	26
		Bug'doyrang	21
		Aralsh	21
		Qizil	21
		Qora	21

* 2022-yil aprel, ulgurji baho: <https://agroservers.ru/orekh-gretskiy/p1-country-9787.htm>

Manba: <http://nutguide.ru/vidy/grechie/ochishhennogo-oreha> ma'lumoti asosida tuzilgan.

Xalqaro klassifikatsiyaga ko'ra, yong'oq Mag'izi quyidagi sortlarga ajratiladi:

- | | |
|-----------------------|-----------------|
| 1. Extra light half | Birinchi sort |
| 2. Light halves | Ikkinchi sort |
| 3. Light broken | Uchinchi sort |
| 4. Light amber halves | To'rtinchi sort |
| 5. Light amber broken | Beshinchi sort |

Eksportga yo'naltirilgan chaqilmagan yong'oqning o'lchamiga ko'ra toifalanishi

Toifa nomi	Kod	Yong'oq o'lchami
Apple	111	33-38 mm
Pear	555	30-33 mm
Cherry	999	27-30 mm

Manba: <http://nutguide.ru/vidy/greckie/ochishhennogo-oreha> ma'lumoti asosida tuzilgan.

Tadqiqot davomida Samarqand viloyati-ning Urgut, Ishtixon, Oqdaryo, Qushrabot, Payariq tumanlarida hamda Jizzax viloyatining Forish tumani hududlarida yong'oq yetishtiruvchilardan so'rovnoma o'tkazildi. Tahlildagi barcha xarajat va daromadlar qayta ishlovchilarning xarid narxlariga nisbatan hisoblangan. So'rovnoma o't-

kazilgan dehqonlarning yong'oqdan foydalanish sxemasi shuni ko'rsatdiki, tovar mahsuloti salmog'i har bir xo'jalikdagi yalpi yong'oq yetishtirishning 92,39 foizini tashkil qiladi. Yo'qotishlar jami yong'oq mahsulotining 7,52 foizini tashkil qiladi. Yalpi yong'oq mahsulotining atigi 1.3 foizi oilaviy iste'mol uchun saqlangan.

So'rovnoma o'tkazilgan xo'jaliklarda yong'oq hosili realizatsiyasi

Ko'rsatkichlar	Miqdor, tonna	Jamiga nisbatan %
Jami mahsulot	1740	100,00
Yo'qotishlar	130,8	7,52
Iste'mol	22,6	1,30
Tovar mahsulot	1586,5	91,18

Manba: muallif ishlanmasi.

Tadqiqot o'tkazilgan hududdagi ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini sotish uchun ikkita kanaldan foydalanganlar:

1-kanal: Dehqon → Tayyorlovchi → Qayta ishlovchi → Eksport


2-kanal: Dehqon → Tayyorlovchi → Eksport
Shuningdek, mahalliy dehqon bozorlarida kichik hajmlarda chaqilmagan yong'oqni sotish amaliyoti ham kuzatildi. An'anaviy kanal bo'yicha mahsulot yetkazib berilganda, dehqonlar yetishtirgan mahsulotni chaqilmagan yong'oq ko'rinishida qishloqlarda uyma-uy yurib, to'plab chiqadigan vositachilarga sotadilar. Ular, o'z navbatida, mahsulotni chaqilgan yoki chaqilmagan ko'rinishda qayta ishlovchilarga sotadi. Takomillashgan kanalda esa dehqonlar o'z mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri qayta ishlovchiga sotadi.

Yong'oqni qiymat zanjirida mahsulotlarga qo'shimcha qiymat kiritish va qayta ishlash katta rol o'ynaydi. Ushbu zanjirni takomillashtirish unga qo'shimcha qiymat qo'shilishida va uni ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirining barcha bo'g'inlari bo'ylab teng taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega [12].

Kapitalni shakllantirish va investitsiyalar. O'zbekistonda yong'oq yetishtiruvchilarning ko'pchiligi chekka hududlarda faoliyat ko'rsatadigan va bozorda kichik foyda bilan ishlaydigan dehqon xo'jaliklari toifasiga kiradi. Shu bilan birga, yong'oqning eksporti uchun qiymat qo'shilishi

yirik hajmdagi texnik vositalar va ishchi kuchini talab qiladi.

Ko'plab xususiy korxonalar yong'oqni qayta ishlashga investitsiyalar kiritgan bo'lib, ular tashqi bozorga mahsulot ishlab chiqarish uchun asosiy va aylanma mablag'larga katta miqdorda mablag' sarflaydi [13]. 4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, binolarga investitsiyalar jami kapitalni shakllantirishda yuqori salmoqni egallaydi. Investitsiyalarning salmog'iga ko'ra, muhim obyektlariga konveyer lentolari (14,93 %), undan keyin quritgich (3,45 %), qutilar (3,54 %) va mag'iz greyderlari (1,74 %) kiradi. Ushbu kapital zaxirasi muntazam texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni talab qiladi. Xomashyoning asosiy qismi turli tumanlardagi yong'oq yetishtiruvchilardan keladi, shu bilan birga, bitta qayta ishlash korxonasi o'zining yong'oqzorini barpo etgani aniqlandi. Yong'oq va mag'izlarning umumiy xaridi 1000-3000 dan 2500-3500 sentnergacha bo'lgan. Yong'oqning asosiy qismi Forish (23 %), keyin Ishtixon (20 %), Urgut (18 %), Oqdaryo (10 %) va boshqalardan (29 %) xarid qilingan bo'lsa-da, yong'oq mag'izining eng ko'p ulushi (42 %) Ishtixon tumanidan va Oqdaryo tumanlaridan (30 %) tayyorlangan. Qo'shilgan qiymatga ega yong'oq eksportiga kelsak, mahsulotning katta qismi agentlar orqali eksport qilingan. Mahsulotning 47 foizi to'g'ridan to'g'ri boshqa yong'oq import qiluvchi mamlakatlarga, asosan, mag'iz ko'rinishida eksport qilingan.



1-rasm. Yong'oqni yetkazib berish zanjiri

Manba: muallif ishlanmasi.

4-jadval

Xususiy qayta ishlovchi korxonalarda kapital shakllanishi⁵

Kapital shakllanishi	Miqdor (dona)	Qiymati (ming so'm)	Jami qiymatga nisbatan %da
<i>Aylanma kapital</i>			
Qutilar	2530	106638	3,54
Chelaklar	755	25271	0,84
Yuvish vannalari	65	2916	0,1
Boshqalar (bolg'a, yuvish savatlari va boshqalar)	672	3610	0,12
Oraliq jami (a)	4022	138574	4,60
<i>O'rta muddatli kapital</i>		0	
Traktor/yuk tashuvchi	0,5	20411	0,68
Vakuumli qadoqlash mashinasi	2	37073	1,23
Yarim vakuumli qadoqlash mashinasi	0,5	15551	0,52
Yong'oq greyderi	1	32630	1,08
Mag'iz greyderi	2	52486	1,74
Transformator (stabilizator)	1	21661	0,72
Lotokli quritgichlar	6,5	106638	3,54
Konveyer lentalar	3	449880	14,93
Ventilyatorlar	1,5	5554	0,19
Bog'lash mashinasi	1,5	16246	0,54
Lentalash mashinasi	1,5	5554	0,19
Boshqalar (tachkalar, muhrlagichlar va qo'l greyderlari)	4,5	5276	0,18
Oraliq jami (b)	25,5	769240	25,52
<i>Uzoq muddatli kapital</i>		0	
Bino va inshootlar	4	2082780	69,1
Yuvish tanklari	4	23327	0,77
Oraliq jami (c)	—	2106107	69,88
Jami	4051,5	3013922	100

Manba: muallif ishlanmasi.

Yong'ovning yetkazib berish zanjiri 1-rasmda ko'rsatilgan. Mevalar, asosan, daraxtda po'stlog'ining bo'linishi va ba'zi yong'oqlarning tabiiy tushishi boshlanganda, yig'ib olinadi. Hosil yig'imi O'zbekiston iqlim sharoitida avgust oyining 15-20-sanasidan boshlanadi, tog' va tog'oldi hududlarda sentabr oyining 10-15-sanasida boshlanadi.

Yig'im-terim umumqabul qilingan amaliyoti uzun tayoqlar bilan hosil shoxlarini urishdir. Tushgan hosil, odatda, ayollar va bolalar tomonidan yig'iladi. Mevasidan urib tushirilgan hosil, agar mevaning pishib yetilgan davrida bo'lsa, po'stlog'idan 50-60 %gacha ajraladi, agar mevaning xom davrida bo'lsa, 2-3 %gacha ajraladi. Yig'ib olingan hosil etilen sintezi uchun soya va shamol esib turadigan joyga yoyib qo'yiladi va po'stlog'ini ajratish uchun 3-4 kun saqlanadi. Po'stlog'idan tez va sifatli qilib qo'lda ajratib olinadi.

Hozirgi kunda texnika rivoji sabab bu ishni texnikalar orqali bajarish mumkin, ammo bu usulda hosilning sifati buziladi. Ba'zi hududlarda yong'oqlarni oqartirish (mag'izining rangi) ham ma'lum darajada qo'llaniladi. Bunda hosil pishmasdan yig'ib olinadi va yig'ilgan hosilni 2-3 kunda po'stlog'idan ajratib, shamol tegib turadigan va quyosh nuri tushmaydigan joyda quritiladi. Ammo bu jarayonda xom hosil 24 soatda 30%gacha vazn yo'qotadi. Yong'ov hosili ochiq sharoitda quritiladi va qulay ob-havo sharoitlariga qarab, quritish uchun 3-5 kun kerak bo'lishi mumkin.

Tayyorlovchi tadbirkorlar turli hududlarda yong'ov yetishtiruvchilardan mahsulot yig'ishni tashkil qiladi, bu jarayonda yong'ov mevasini dehqonlardan sotib olish jarayonida yong'ovning namlik darajasi, Mag'izining rangi, po'stlog'ining qalin va yupqaligi, ranglar turiga qarab narxlab olinadi. Quritilgan yong'ov hosili qadoqlanib, quyosh nuri tushmaydigan joyda saqlanadi. Agar quyosh nuridan xoli bo'lmasa, hosilning sifatiga salbiy ta'sir etadi va mahsulot qiymatining pasayishiga olib keladi. Xususi korxonalar xomashyoni to'g'ridan to'g'ri dehqonlardan qisman yoki to'liq avans to'lagan holda xarid qiladi.

O'rganilgan yong'ov yetishtiruvchi dehqonlar mahsulotni qayta ishlovchi korxonalariga sotishni afzal ko'rgani kuzatildi. Tezkor to'lovlar va yuqori narxlar dehqonlarning vositachilarni aylanib o'tish orqali yaxshi daromad olishiga olib keldi. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot dehqon yoki tayyorlovchi tadbirkor tomonidan olib kelinib, tushirilgandan so'ng, mahsulot sifat nazoratidan o'tkaziladi. Narxni aniqlash va qo'shimcha qiymat qo'shish uchun yong'ovning o'lchami, yong'ov mag'izi foizi, yong'ovning qobig'i qalinli-

gi, yong'ovning namligi, rangi, ta'mi va yong'ovdagi infeksiya (agar mavjud bo'lsa) tekshirishadi.

Keyin yong'oqlar greyder yordamida o'lchamiga qarab tasniflanadi. To'liq o'lchamli mag'izlarni olish; shuning uchun yong'ov iflosliklari va yorilishlarni olib tashlash uchun quritilgan yong'ov bo'lsa, 6-10 soat davomida ivitib qo'yish talab etiladi. Agar hosil yig'ib-terib olingan davrda Mag'izidan ajratib olinsa, suvda ivitilmaydi. Keyin malakali ayol ishchilar yog'och bolg'a va po'lat o'ramlar yordamida ivitilgan yong'ovni chaqadilar. Yong'ov mag'izini sindirib yubormaslik uchun malakali ishchilar chaqish bilan shug'ullanadi. 100 kg yong'ovdan qobig'ining qalinligi va sifatiga qarab 37-40 kg gacha mag'iz olinadi.

Yong'oqlardan ajratib olingandan so'ng, mag'izlar sushilka quritgichlarda quritiladi va 5-10 % namlik mag'iz ichida saqlanadi. Keyin mag'izlar o'lchamiga qarab mag'iz greyderlarida tasniflanadi. Navlangan mahsulot konveyer lentalarini ustiga joylashtiriladi va malakali ishchilar ularni 2-jadvalda ko'rsatilganidek, mag'iz rangiga qarab beshta navga ajratadilar. Yozda, noqulay iqlim sharoitlarida saqlash uchun mag'izlar azot bilan vakuumli folga paketlarga o'raladi. Mahsulot talab eng yuqori mavsumda yakuniy qadoqlash uchun tayyorlanadi, yozgi paketlar ochiladi va o'lchamdagi plastik paketlarga qadoqlanadi. Keyin qadoqlangan material gofirovka qilingan karton qutilarga solinadi. Ichkariga zamburug'larning kirishi oldini olish uchun idishlar metil bromid bilan fumigatsiya qilinadi.

Eksport qiluvchi fumigatsiya belgilangan standartlarga muvofiq amalga oshirilganligini va fumigatsiya laklash, bo'yash yoki o'rashtirish oldin emas, balki idishda amalga oshirilganligini tasdiqlovchi boshqa sertifikat olishi kerak. Keyin qadoqlangan yong'ov Mag'izi turli savdo hamkorlariga eksport qilinadi.

Yong'ov sifatida sotib olingan va qayta ishlovchi tomonidan mag'iz sifatida eksport qilganda, qo'shilgan qiymat tahlili. O'zbekiston sharoitida ushbu kanallar doirasida yong'ovni qayta ishlash korxonalarida yong'ovni savdogarlardan yoki bevosita mahalliy dehqonlardan xarid qilish bilan shug'ullanadi. Qayta ishlovchilar yong'ovning sifat ko'rsatkichlari asosida ushbu yetkazib beruvchilarga baho ko'rinishida kompensatsiya to'laydi. To'plangan mahsulotning narxini aniqlashda qayta ishlovchilar sotib olingan yong'oqlarni uchta alohida navga ajratadilar (2-jadval). Qayta ishlovchilar yong'ovning qiymatini oshirish uchun katta resurslar ajratadi va keyinchalik ularni turli mag'iz navlari ko'rinishida jahon eksport bozoriga chiqaradi.

Sotish kanallarida chaqilmagan yong'oq shaklida sotib olingan mag'iz bahosining qiymat zanjiri bo'g'inlar bo'yicha taqsimlanishi⁶

	1-nav				2-nav				3nav			
	1-kanal	%	2-kanal	%	1-kanal	%	2-kanal	%	1-kanal	%	2-kanal	%
Dehqon xo'jaligi darajasida												
Hosil yig'im xarajati	466	0,58	466	0,58	403	0,6	403	0,6	261	0,65	261	0,65
To'plash xarajati	104	0,13	104	0,13	87	0,13	87	0,13	56	0,14	56	0,14
Qobiqdan ajratish	56	0,07	56	0,07	54	0,08	54	0,08	32	0,08	32	0,08
Vazn yo'qotish	128	0,16	128	0,16	114	0,17	114	0,17	72	0,18	72	0,18
Quritish	72	0,09	72	0,09	67	0,1	67	0,1	44	0,11	44	0,11
Qadoqlash	48	0,06	48	0,06	40	0,06	40	0,06	28	0,07	28	0,07
Mahalliy xarajatlar	32	0,04	32	0,04	27	0,04	27	0,04	16	0,04	16	0,04
Transport xarajatlari	0	0	88	0,11	0	0	74	0,11	0	0	48	0,12
Aralash xarajatlar	16	0,02	16	0,02	13	0,02	13	0,02	8	0,02	8	0,02
Jami xarajat	923	1,15	1012	1,26	798	1,19	872	1,3	518	1,29	570	1,42
Yo'qotishlar	104	0,13	177	0,22	87	0,13	154	0,23	56	0,14	100	0,25
Sotish bahosi	9066	11,29	17473	21,76	7844	11,69	15118	22,53	5123	12,76	9873	24,59
Sof baho	8046	10,02	16285	20,28	6958	10,37	14091	21	4545	11,32	9202	22,92
Tayyorlovchi darajasi												
Xarid narxi	9066	11,29	—	—	7844	11,69	—	—	5123	12,76	—	—
Turli joylardan to'plash	24	0,03	—	—	20	0,03	—	—	16	0,04	—	—
Yuklash va tushirish	8	0,01	—	—	7	0,01	—	—	4	0,01	—	—
Transport xarajatlari	88	0,11	—	—	74	0,11	—	—	48	0,12	—	—
Jami xarajatlar	112	0,14	—	—	101	0,15	—	—	64	0,16	—	—
Yo'qotishlar	128	0,16	—	—	107	0,16	—	—	72	0,18	—	—
Yong'oqni sotish bahosi	17827	22,2	—	—	15420	22,98	—	—	10074	25,09	—	—
Foyda	8520	10,61	—	—	7368	10,98	—	—	4814	11,99	—	—
Qayta ishlovchi darajasi												
Xarid bahosi	17827	22,2	17473	21,76	15420	22,98	15118	22,53	10074	25,09	9873	24,59
Dehqonlardan to'plash	48	0,06	48	0,06	40	0,06	40	0,06	28	0,07	28	0,07
Yuklash	8	0,01	8	0,01	7	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Tushirish	8	0,01	8	0,01	7	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Sifat tekshiruvi	8	0,01	8	0,01	7	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Yong'oqni navlarga va toifalarga ajratish	16	0,02	16	0,02	13	0,02	13	0,02	8	0,02	8	0,02
Ivitish	16	0,02	16	0,02	13	0,02	13	0,02	8	0,02	8	0,02
Chaqish	56	0,07	56	0,07	47	0,07	47	0,07	32	0,08	32	0,08
Konversiya xarajati	241	0,3	241	0,3	208	0,31	208	0,31	137	0,34	137	0,34
Mag'izni quritish	8	0,01	8	0,01	7	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Mag'izni toifalarga mexanik ajratish	8	0,01	8	0,01	7	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Rangiga qarab navlarga ajratish	169	0,21	169	0,21	148	0,22	148	0,22	96	0,24	96	0,24
Qadoqlash	233	0,29	233	0,29	201	0,3	201	0,3	132	0,33	132	0,33
Karton	145	0,18	145	0,18	127	0,19	127	0,19	80	0,2	80	0,2
Folga	96	0,12	96	0,12	87	0,13	87	0,13	56	0,14	56	0,14
Lenta	48	0,06	48	0,06	40	0,06	40	0,06	24	0,06	24	0,06
Konteyner fumigatsiyas	8	0,01	8	0,01	7	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Aeroportga/stansiyaga yetkazib berish	273	0,34	273	0,34	235	0,35	235	0,35	153	0,38	153	0,38
Import mamlakatga yetkazib berish	554	0,69	554	0,69	476	0,71	476	0,71	313	0,78	313	0,78
Eksport bilan bog'liq xarajatlar	48	0,06	48	0,06	40	0,06	40	0,06	24	0,06	24	0,06
Boshqa xarajatlar	32	0,04	32	0,04	27	0,04	27	0,04	16	0,04	16	0,04
Asosiy vositalar xarajatlari	8054	10,03	8054	10,03	6965	10,38	6965	10,38	4549	11,33	4549	11,33
Jami xarajatlar	10062	12,53	10062	12,53	8703	12,97	8703	12,97	5685	14,16	5685	14,16
Yo'qotish	1566	1,95	1566	1,95	1208	1,8	1208	1,8	731	1,82	731	1,82
Eksport bahosi	80300	100	80300	100	67100	100	67100	100	40150	100	40150	100

Manba: muallif ishlanmasi.

MOLIYA VA SOLIQLAR

Qayta ishlovchilar mag'izlarni besh xil toifa- kapalak, ochiq rangdagi choraklik va och sarg'ish ga tasniflagan bo'lsalar-da, tahlilda savdoning kapalak kabi ma'lum navlar uchun narxlash diazozonlari o'rtacha hisoblangan.

6-jadval

Sotish kanallarida mag'iz shaklida sotib olingan yong'oq bahosining qiymat zanjiri bo'g'inlar bo'yicha taqsimlanishi

	1-nav				2-nav				3-nav			
	1- kanal	%	2- kanal	%	1- kanal	%	2- kanal	%	1- kanal	%	2- kanal	%
Dehqon xo'jaligi darajasida												
Hosil yig'im xarajati	466	0,58	466	0,58	403	0,6	403	0,6	261	0,65	261	0,65
To'plash xarajati	104	0,13	104	0,13	87	0,13	87	0,13	56	0,14	56	0,14
Qobiqdan ajratish			0									
Vazn yo'qotish	56	0,07	56	0,07	54	0,08	54	0,08	32	0,08	32	0,08
Quritish	128	0,16	128	0,16	114	0,17	114	0,17	72	0,18	72	0,18
Mahalliy xarajatlar	72	0,09	72	0,09	67	0,1	67	0,1	44	0,11	44	0,11
Chaqishga tayyorlash	32	0,04	32	0,04	27	0,04	27	0,04	16	0,04	16	0,04
Chaqish xarajatlari	859	1,07	859	1,07	745	1,11	745	1,11	486	1,21	486	1,21
Konversiya xarajatlari	658	0,82	658	0,82	570	0,85	570	0,85	373	0,93	373	0,93
Toifalarga ajratish xarajatlari	2064	2,57	2064	2,57	1785	2,66	1785	2,66	1168	2,91	1168	2,91
Qadoqlash xarajatlari	329	0,41	329	0,41	289	0,43	289	0,43	185	0,46	185	0,46
Transport xarajatlari	185	0,23	185	0,23	161	0,24	161	0,24	104	0,26	104	0,26
Boshqa xarajatlar	0	0	185	0,23	0	0	161	0,24	0	0	108	0,27
Yo'qotish	16	0,02	16	0,02	13	0,02	13	0,02	8	0,02	8	0,02
Sotish bahosi	4111	5,12	4304	5,36	3556	5,3	3724	5,55	2325	5,79	2429	6,05
Sof baho	891	1,11	1261	1,57	778	1,16	1208	1,8	458	1,14	787	1,96
Tayyorlovchi darajasi												
Xarid bahosi	35035	43,63			25411	37,87				37,86		
Turli joylardan to'plash	24	0,03			20	0,03				0,04		
Yuklash va tushirish	8	0,01			7	0,01				0,01		
Transport xarajatlari	169	0,21			148	0,22				0,24		
Jami xarajat	201	0,25			174	0,26				0,28		
Yo'qotishlar	490	0,61			436	0,65				1,09		
Sotish bahosi	48750	60,71			39978	59,58				60,63		
Foyda	13033	16,23			13957	20,8				21,29		
Qayta ishlovchi darajasi												
Xarid bahosi	48750	60,71	48485	60,38	98125	59,58	39804	59,32	24343	60,63	24182	60,23
Dehqonlardan to'plash	48	0,06	48	0,06	106	0,06	40	0,06	28	0,07	28	0,07
Yuklash	8	0,01	8	0,01	20	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Tushirish	8	0,01	8	0,01	20	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Sifat tekshiruvi	8	0,01	8	0,01	20	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Mag'izni quritish	8	0,01	8	0,01	12,8	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Mag'izni toifalarga mexanik ajratish	8	0,01	8	0,01	21,23	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Rangiga qarab navlarga ajratish	169	0,21	169	0,21	360	0,22	148	0,22	96	0,24	96	0,24
Qadoqlash xarajatlari	233	0,29	233	0,29	494	0,3	201	0,3	132	0,33	132	0,33
Karton	145	0,18	145	0,18	305	0,19	127	0,19	80	0,2	80	0,2
Folga	96	0,12	96	0,12	209	0,13	87	0,13	56	0,14	56	0,14
Lenta	48	0,06	48	0,06	96	0,06	40	0,06	24	0,06	24	0,06
Konteyner fumigatsiya	8	0,01	8	0,01	12	0,01	7	0,01	4	0,01	4	0,01
Aeroportga/stansiyaga yetkazib berish	273	0,34	273	0,34	572	0,35	235	0,35	153	0,38	153	0,38
Import mamlakatga yetkazib berish	554	0,69	554	0,69	1173	0,71	476	0,71	313	0,78	313	0,78
Eksport bilan bog'liq xarajatlar	48	0,06	48	0,06	96	0,06	40	0,06	24	0,06	24	0,06
Boshqa xarajatlar	32	0,04	32	0,04	60	0,04	27	0,04	16	0,04	16	0,04
Asosiy vositalar xarajatlari	8054	10,03	8054	10,03	17100	10,38	6965	10,38	4549	11,33	4549	11,33
Jami xarajatlar	9740	12,13	9740	12,13	20677,03	12,56	8428	12,56	5501	13,7	5501	13,7
Yo'qotish	1445	1,8	1445	1,8	3211,45	1,95	1308	1,95	803	2	803	2
Eksport bahosi	80300	100	80300	100	67100	100	67100	100	40150	100	40150	100

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu o'rnatilgan kanallar doirasida yong'oq narxining shakllanishi 5-jadvalda keltirilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, fermerlar o'z mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri qayta ishlash korxonalariga sotish imkoniyatiga ega bo'lganda, ularning sof daromadlari sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari ushbu to'g'ridan to'g'ri sotish kanalida qayta ishlovchidan oldin ishtirok etgan barcha vositachilar an'anaviy sotish kanallariga nisbatan yaxshilangan foyda marjasiga ega bo'lgan. Qayta ishlovchilar uchun proporsional xarajatlar va daromadlar nisbatan yuqori bo'lsa-da, ularning foyda marjasi eng yuqori bo'lib qolmoqda. Bu shuni ko'rsatadiki, qo'shilgan qiymatga investitsiyalarning har bir birligi qiymat qo'shilish jarayonida sifatni oshirish uchun proksi bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari qayta ishlash korxonalarini tomonidan investitsiya qilingan har xil xarajat komponentlarining taqsimoti shuni ko'rsatadiki, xarajatlarning katta qismi asosiy kapitalga va mahsulotlarni xalqaro bozorga eksport qilishga yo'naltirilgan.

Mag'iz ko'rinishida sotib olingan va qayta ishlovchi tomonidan eksport qilinganda, eksport uchun qo'shimcha qiymat. Takomillashgan kanalda qayta ishlovchi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi muhim funksiyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Qayta ishlovchilar mag'izlarni to'g'ridan to'g'ri sotib oladi yoki yong'oq sotib olib, yong'oq Mag'iziga bo'lgan global talabdan kelib chiqib, uni xalqaro bozorga chiqarish uchun tizimli ravishda mag'izga aylantiradi.

Yuqori sifatli mag'izlarni qayta ishlovchilar tayyorlovchilardan yoki to'g'ridan to'g'ri dehqonlardan eksport qilish uchun sotib olayotganda, turli xil kanallar qo'llaniladi. Ushbu kanallarda savdogarlar yoki fermerlar yong'oqni chaqib, mag'izni oladi va bu jarayonda mag'izni ajratish bilan bog'liq xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Dehqonlar o'z mahsulotini to'g'ridan to'g'ri qayta ishlovchilarga mag'iz ko'rinishida sotganda, hatto, xarajatlari yuqori bo'lsa ham yuqoriroq daromad oladi. Xuddi shunday, savdogarlar yong'oqni ko'rinishida emas, balki mag'iz sifatida sotishdan ko'proq foyda olishadi. Umuman olganda, dehqonlar takomillashgan kanallarda eng yuqori daromad olishadi.

Dehqonlar mag'izni to'g'ridan to'g'ri qayta ishlovchilarga sotganlarida, daromadlari nisbatan yuqori bo'ladi. Bundan tashqari dehqonlarning qo'shimcha qiymatga investitsiya qilingan har bir so'm uchun qaytimlari oshgani kuzatildi. Dehqonlar mag'izni to'g'ridan to'g'ri qayta ishlovchiga sotganda, ularning sof daromadi mutlaq va mutanosib ravishda yuqoriroq bo'ladi. Qayta ishlovchilar yong'oq yoki mag'iz sotib oladigan 2-kanallari

yuqori samaradorlik va foydani ko'rsatadi. Qayta ishlovchilar kanalda asosiy funkcionerlar sifatida harakat qilganda, yaxshiroq qiymat ulushiga ega bo'lishadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, takomillashgan kanallarda dehqonlarning sof daromadi absolyut miqdorlarda maksimal bo'ldi. Dehqonlar o'z mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqaruvchiga sotganlarida, ularning daromadlari nisbatan ko'proq edi.

Shunga ko'ra, qayta ishlovchi chaqilmagan yong'oq sotib olganida, uning samaradorligi 2-kanalda yuqoriroq bo'lgan va qayta ishlovchi ishlab chiqaruvchidan mag'iz sotib olayotganda, 2-kanalda bir xil natijalar kuzatilgan. Dehqonlar mag'izlarni boshqa vositachilarga emas, balki takomillashgan kanalda qayta ishlovchi orqali sotganda, u tomonidan olingan sof qiymat ko'proq bo'ladi. Takomillashgan kanalda qayta ishlovchi ko'proq xarajatlarni amalga oshiradi, bu mahsulotga qo'shimcha qiymat beradi va mag'izlarni qayta ishlashda yo'qotishlarni kamaytiradi. Takomillashgan kanalda ko'proq xarajatlarga qaramay, qayta ishlovchining foydasi kamroq bo'lganligi kuzatildi, bu ishlab chiqaruvchiga o'z mahsulotlarini takomillashgan kanal orqali sotish uchun qulaydir. Qo'shimcha qiymat hisobiga yong'oq yetishtirishning eksport marketingi bilan integratsiyalashuvi ushbu ekinning ichki va jahon savdosida salohiyatidan foydalanishga yordam beradi [14].

Xulosa va takliflar. Dehqonlar tomonidan olingan sof qiymat, yong'oq mag'izlari an'anaviy vositachilardan farqli o'laroq, takomillashgan kanal ichidagi qayta ishlovchilar orqali sotilganida sezilarli o'sishni ko'rsatadi. Yig'ilgan hosilni yaxshi jihozlangan korxonalarda saralash, quritish va zamonaviy shaklda qadoqlash ishlaridan so'ng yuqori potensialga ega bozorlarga yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi [15].

Qo'shimcha qiymat va eksport marketingi integratsiyasi orqali yong'oq yetishtirish salohiyatidan ham ichki, ham xalqaro savdoda samarali foydalanish mumkin. Shu bilan birga, mahsulot tayyorlashdan yong'oq eksportigacha bo'lgan butun jarayonda bir qator muammolar mavjud. Eksportchilar tomonidan ta'kidlangan muammolar orasida qo'shimcha qiymat uchun xomashyoning yetarli darajada ta'minlanmaganligi muhim muammo hisoblanadi. Milliy va xalqaro bozorda yong'oqqa bo'lgan talab katta bo'lishiga qaramay, ichki ishlab chiqarish talabni yetarli darajada qondirmaydi, bu esa talab va taklif nomutanosibligiga olib keladi. Sertifikatlangan mutaxassislar va suboptimal eksport bo'yicha maslahat xizmatlari kabi malakali ishchilarning yetishmasligi, shuningdek, ishlab chiqarish markazlari

yaqinida organik sertifikatlash agentliklarining yo'qligi muammolarni yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari institutsional kreditlar va subsidiyalarning qimmatligi va o'zlashtirilishining kechiktirilishi xususiy korxonalar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tahlillarga asoslanib, biz quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Yong'oq yetishtiruvchilarni o'qitish dasturlarini tashkil etish va kadrlar salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashish lozim. "Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash" doirasidagi tadbirlarning aksariyati bevosita yong'oq ishlab chiqarish tizimiga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmaydi. Ushbu tadbirlar, birinchi navbatda, bog'dorchilik ekinlari maydoni va hosildorligini oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, faqat cheklangan miqdordagi

tashabbuslar mintaqada yong'oq yetishtirishni rivojlantirishga qaratilgan. Qo'shilgan qiymat hisobiga yong'oq yetishtirishning eksport marketingi bilan integratsiyalashuvi ushbu ekinning ichki va jahon savdosida salohiyatidan foydalanishga yordam beradi. Bundan tashqari ushbu sohalaridagi tadqiqotlar sifatni yaxshilashda katta samara beradi.

Sifatni yaxshilashga alohida e'tibor qaratilishi ham jahon bozorida yong'oq mahsulotlarini yaxshiroq narxlarda sotishga yordam beradi.

Ishlab chiqaruvchi va hududlar darajasida kichik qayta ishlash bo'linmalarini tashkil etish kerak. Bundan tashqari hukumat fermerlar va xususiy yong'oq qayta ishlovchi korxonalarini arzon va oson kredit bilan ta'minlash uchun turli institutlarni kuchaytirishi kerak.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Naqvi S.A. and Dass H.C. 1994. Assessment of post-harvest losses in Nagpur mandarin -A pathological perspective. *Plant Disease Research*, 9(2): 218.
2. Singh D. and Jain R.K. 2004. Post-harvest losses in distant marketing of kinnow. *Plant Disease Research*, 15(1): 36-39.
3. Чепурной В.С., Василенко И.И. Резервы повышения урожайности грецкого ореха. // *Садоводство и виноградарство*. 1991 г. № 11. С. 36-39.
4. Барышман Ф.С. Селекция ореха для повышения продуктивности защитных лесов. // *Труды Кубанского сельскохозяйственного института*, 1975. Выпуск 111 (139), с. 83-94; Дорофеев П.П. *Культура ореха грецкого в Молдавии*. – Кишинёв: Госиздат, 1948. – 36 с.
5. Сухоруких Ю.И. С 91 Избранные труды: в 3 кн. / Ю.И. Сухоруких. – Майкоп: ООО «Качество», 2008. Кн. 2: Орехоплодные. 2008. – 396 с.
6. Олисаев В.А. На плантациях ореха грецкого. // *Сельские зори*. 1979 г. № 11. С. 57-58.
7. Махмуд Бахшинежад. "Сравнительные преимущества культур семейства ореховых в Иране" диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. МГУ им М.Ломоносова (2012 г.).
8. Adem H. & Peter H. Jerie. "Walnut Industry. Research & Best Practice Implementation". A report for the Rural Industries Research and Development Corporation. 2004. Publication №.04/032.
9. Ahrorov F., Sangirova U., Avezov H. Hindistonning Jammu va Kashmir shtatlarida yong'oqning modernizatsiya qilingan qiymat zanjiri tajribasi. *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi*, 2022, 7/2, 65-69.
10. Ahrorov F., Sangirova U., Avezov H. Yong'oqni ichki va tashqi bozorda samarali sotish tizimini (zamonaviy marketing usullarini) tashkil etish orqali aholi daromadini oshirishning obyektiv zaruriyatini asoslash. *Agro Ilm*, 2022. 118-122-b. http://qxjurnal.uz/_ld/5/500__2022.pdf.
11. Инобатов А.Б. Деҳқон хўжаликларига грек ёнғоғини етиштиришнинг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўналишлари. – Т., 2023. Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети хузуридаги илмий даражалар берувчи DSc.03/30.01.2020.I.10.03 рақамли Илмий кенгаш.
12. Acharya S.S. and Agrawal N.L. 2001. *Agricultural Marketing in India*. Oxford & IBH Publishing Company, New Delhi.
13. Shigaeva J. & Darr D. (2020 y. 6 July). On the socio-economic importance of natural and planted walnut (*Juglans regia L.*) forests in the Silk Road countries: A systematic review. *Forest Policy and Economics* (118). doi:<https://doi.org/10.1016/j.forpol.2020.102233>
14. Sreenivasa M.D., Gajanana T.M., Sudha M. and Subramanyam K.V. 2002. Post-harvest loss estimation in mango at different stages of marketing; A methodological perspective, *Agri. Econ. Res. Rev.*, 15(2): 188-200.
15. Avezov H. Samarqand viloyatida yong'oq ishlab chiqarish va uning samaradorligi masalalari. // *Iqtisodiyot va ta'lim*. 2023. T. 24. 1-son. 452-456-bet.